



UZINFOCOM

DAVLAT AXBOROT TIZIMLARINI YARATISH VA QO'LLAB-
QUVVATLASH BO'YICHA YAGONA INTEGRATOR

ESG

SIYOSATI



2025



Bosh direktorning murojaatnomasi

Bugungi kunda biznes muvaffaqiyati nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan, balki jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi, atrof-muhitni muhofaza qilish va samarali korporativ boshqaruv tizimlarini yaratish bilan ham o'lchanadi. Biz kompaniyamizning kelajagini ushbu jihatlar bilan uyg'unlashtirishda va ijobiy o'zgarishlar harakatlantiruvchisi bo'lishida ko'ramiz.

ESG-transformatsiya biz uchun shunchaki zamonaviy tendensiya emas, balki strategik ustuvorlikdir. Biz nafaqat mijozlar va hamkorlarning kutilmalarini qondiruvchi, balki yangi ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mas'uliyati standartlarini

belgilaydigan kompaniya bo'lishga intilamiz.

Biz bu maqsadlarga erishish yo'lida o'zgarishlarga va yangi yondashuvlarga ochiq bo'lish muhimligini tushunamiz. Aynan shuning uchun bizning strategiyamiz ESG tamoyillarini asosiy biznes jarayonlariga integratsiya qilishga asoslangan bo'lib, bu bizga mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, resurslarni saqlash va barcha manfaatdor tomonlar uchun qadriyatlar yaratish imkonini beradi.

Yaqin kelajakda biz barqaror kelajak rivojiga o'z hissamizni oshirish uchun bir qator tashabbuslarni amalga oshirishni rejalashtirmoqdamiz. Bu faoliyatimizning energiya samaradorligini oshirish, hamda odamlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlashga taalluqlidir.

Barqaror rivojlanish - bu kelajakka kiritilgan sarmoyamiz bo'lib, unda muvaffaqiyat nafaqat raqamlar bilan, balki kelgusi avlodlar uchun qoldirilgan meros bilan ham o'lchanadi.

1. Atamalar, qisqartmalar va ta'riflar

ESG (Environmental, Social, and Corporate Governance) – bu kompaniyaning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv muammolarini hal qilishga jalb qilinishiga erishiladigan kompaniya boshqaruvi xususiyatlari majmuidir.

"Yagona integrator UZINFOCOM" MChJ (keyingi o'rinlarda – Jamiyat) – "Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator UZINFOCOM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

Jamiyatning yuqori boshqaruv tarkibi – "Yagona integrator UZINFOCOM" MChJning rahbarlar jamoasi.

Biznes hamkorlar – biznes munosabatlar amalga oshiriladigan jismoniy va yuridik shaxslar: ta'minotchilar, pudratchilar, mijozlar, agentlar va boshqalar.

Kamsitish – bu shaxsga nisbatan irq, millat, jins, til, din, e'tiqod, ijtimoiy kelib chiqish, jamiyatdagi mavqe yoki sog'lig'idagi cheklovlarga asoslangan salbiy yoki noxolis munosabat bo'lib, u istisno qilish yoki afzal ko'rish kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Jalb qilingan / manfaatdor / aloqador tomonlar – Jamiyat faoliyati natijadorligidan manfaatdor bo'lgan va (yoki) Jamiyat o'z faoliyati bilan ta'sir ko'rsatadigan, va (yoki) ushbu tomonlar faoliyati ta'siriga duchor bo'ladigan jismoniy va yuridik shaxslar.

Inklyuzivlik – jamiyat hayotini tashkil etish tamoyili bo'lib, u qabul qilish madaniyatini va kamsitishning yo'qligini aks ettiradi. Ushbu tamoyil irq, millat, jins, til, din, e'tiqod, ijtimoiy kelib chiqish, jamiyatdagi mavqe yoki sog'lig'idagi cheklovlardan qat'i nazar, barcha insonlarni o'zaro hamkorlikga jalb etish imkonini beradi.

Mijozlar – Jamiyat tomonidan taqdim etiladigan mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni buyurtma qiluvchi, xarid qiluvchi yoki foydalanuvchi shaxslar (yuridik/jismoniy).

Korporativ etika (biznes etika) – bir tashkilot ichidagi munosabatlarga va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarga tartibga soluvchi ta'sir ko'rsatadigan axloqiy tamoyillar, ma'naviy xulq-atvor me'yorlari tizimi.

Mahalliy hamjamiyatlar – Jamiyat faoliyat ko'rsatadigan hududlar aholisi.

Atrof-muhit (AM) – tabiiy muhit komponentlari, tabiiy va tabiiy-antropogen obyektlar, shuningdek antropogen ob'yektlar majmui.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash va mustahkamlash, shuningdek davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

Inson huquqlari – irqi, teri rangi, jinsi, tili, dini, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa har qanday jihatidan qat'i nazar, barcha odamlarning ajralmas mulki. Inson huquqlari yashash va erkinlik huquqi, qullik va qiynoqlardan ozod bo'lish, e'tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash, mehnat va ta'lim olish huquqi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ta'minotchi – Jamiyat bilan tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki boshqa xizmatlarni ko'rsatish maqsadida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni xohlovchi yoki bunday munosabatlarda bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Xodimlar – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxslar.

Faoliyat hududlari – Jamiyat xo'jalik faoliyatini amalga oshiradigan hudud.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) – O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonuni asosida ishlab chiqilgan Buxgalteriya hisobining milliy standarti O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini me‘yoriy tartibga solish tizimining elementi hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari kengashi (IASB) tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarga muvofiq buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni tartibga soluvchi hujjatlar majmuasi.

Barqaror rivojlanish (BR) – kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga xavf solmagan holda, bugungi kun ehtiyojlarini qondiruvchi jamiyat rivojlanishi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari (BMT BRM) – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2030-yilgacha bo‘lgan barqaror rivojlanish kun tartibida qabul qilingan 17 ta maqsad bo‘lib, ular sayyora resurslarini saqlash va barcha uchun farovonlikni ta‘minlashga qaratilgan hamda 15 yil davomida (2015-yildan boshlab) dunyoda erishilishi kerak bo‘lgan ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

ESG-omillari – atrof-muhit, ijtimoiy muhit va korporativ boshqaruv bilan bog‘liq biznesni yuritish omillari.

ESG-transformatsiya - kompaniya yoki tashkilotning barcha darajadagi faoliyat sohalarida baholash va qaror qabul qilish jarayonlariga ESG yondashuvi hamda barqaror rivojlanish tushunchasiga muvofiq ekologik, ijtimoiy, boshqaruv va iqtisodiy omillarni singdirish orqali amalga oshiriladigan tizimli o‘zgarishlardir.

Global Reporting Initiative (GRI) – Hisobotlar bo‘yicha global tashabbus.

Sustainability Accounting Standards Board (SASB) – tijorat banklari va IT-sektor kompaniyalari uchun hisobot standartlari.

BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP, United Nations Environment Programme) – BMT tizimi doirasida tashkil etilgan, tizim darajasida tabiatni muhofaza qilishni muvofiqlashtiruvchi dastur.

World Business Council for Sustainable Development (WBCSD) – Barqaror rivojlanish bo‘yicha jahon biznes kengashi.

2. Umumiy qoidalar

ESG-omillarga asoslangan barqaror rivojlanish sohasidagi siyosat (keyingi o'rinlarda – Siyosat), Jamiyatning ESG tamoyillarini uning faoliyatiga integratsiyalovchi asosiy hujjati hisoblanadi.

Siyosat Jamiyatning ESG masalalari bo'yicha pozitsiyasini belgilaydi hamda barqaror rivojlanish sohasidagi tamoyillar, maqsad va vazifalarni o'rnatadi. Siyosat Jamiyatning ESG-omillarni joriy biznes-modelga integratsiyalash yondashuvini mustahkamlaydi, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari va majburiyatlari hamda ESG-amaliyotlarini takomillashtirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Ushbu Siyosat Jamiyatning ixtiyoriy qabul qilingan doimiy amalda bo'lgan ichki hujjatidir. Siyosat muhim xalqaro va mahalliy me'yoriy hujjatlar, standartlar va tavsiyalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va eng yaxshi soha amaliyotlarini hisobga oladi. Jamiyat Siyosatining asosiy maqsadi iqtisodiy manfaatlar hamda ijobiy ekologik va ijtimoiy ta'sir o'rtasidagi muvozanatga erishish orqali barcha manfaatdor tomonlar uchun qadriyat yaratishga yo'naltirilgan faoliyatni yuritish bo'yicha tamoyillar, maqsad va vazifalarni belgilashdan iborat.

Siyosat Jamiyat, shuningdek uning tarkibiy bo'linmalariga tatbiq etiladi. Siyosat Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan o'z faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirishda, shu jumladan manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik, ichki me'yoriy hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, uslubiyotlar, texnologik sxemalar, standartlar va boshqalar) ishlab chiqish, axborotni tarqatish va boshqa turdagi kommunikatsiyalarga taalluqli qismida majburiy hisoblanadi.

Ushbu Siyosatning ijrosi ustidan nazorat Jamiyatning Bosh direktori boshchiligidagi yuqori boshqaruv tarkibiga yuklatilgan.

3. Jamiyatning ESG sohasidagi pozitsiyasi

Jamiyat o'z faoliyatida ESG tamoyillariga rioya qilishni eng muhim strategik yo'nalishlardan biri deb hisoblaydi.

Jamiyatning ESG sohasidagi asosiy vazifasi – kelajak avlodlar manfaati yo'lida ekologik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga amal qilgan holda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shishdan iborat.

4. Barqaror rivojlanish tamoyili bo'yicha ESG sohasidagi maqsad va vazifalar

4.1. BMT va O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlari

Jamiyatning ESG sohasidagi faoliyatga yondashuvi BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari (keyingi o'rinlarda — BMT BRM) va O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlari asosida shakllangan strategik vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan.

BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari quyidagilardan iborat:

1-maqsad: Qashshoqlikni barcha ko'rinishlarini har yerda tugatish.

2-maqsad: Ochlikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ovqatlanishni yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish.

3-maqsad: Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yosh vakillari farovonligiga ko'maklashish.

4-maqsad: Hamma uchun hayot davomida sifatli, adolatli va keng qamrovli ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash va rag'batlantirish.

5-maqsad: Barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda gender tengligini ta'minlash.

6-maqsad: Hamma uchun suv resurslari va sanitariyadan oqilona foydalanish hamda ularning mavjudligini ta'minlash.

7-maqsad: Hamma uchun arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.

8-maqsad: Barcha uchun izchil, keng qamrovli va barqaror iqtisodiy o'sishni, to'liq va samarali bandlikni hamda munosib mehnatni rag'batlantirish.

9-maqsad: Mustahkam infratuzilmani yaratish, keng qamrovli va barqaror industrializatsiyani hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash.

10-maqsad: Mamlakatlar ichidagi va ular o'rtasidagi tengsizlikni qisqartirish.

11-maqsad: Shaharlar va aholi punktlarining ochiqligini, xavfsizligini, bardoshlilikini va ekologik barqarorligini ta'minlash.

12-maqsad: Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishni ta'minlash.

13-maqsad: Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha shoshilinch choralar ko'rish.

14-maqсад: Barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lida okeanlar, dengizlar va dengiz resurslarini asrash hamda ulardan oqilona foydalanish.

15-maqсад: Quruqlik ekotizimlarini himoya qilish va tiklash hamda ulardan oqilona foydalanishga ko'maklashish, o'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llashishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasi jarayonini to'xtatish va orqaga qaytarish hamda biologik xilma-xillikning yo'qolish jarayonini to'xtatish.

16-maqсад: Barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lida tinchliksevar va ochiq jamiyat qurishga ko'maklashish, barcha uchun odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash va barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirok etishga asoslangan muassasalarni yaratish.

17-maqсад: Barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik.



1 – rasm. BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish.
2. Oziq-ovqat xavfsiligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish.
3. Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish.
4. Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish.
5. Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish.
6. Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash.

7. Arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta'minlash.

8. Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga ko'maklashish.

9. Barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga ko'maklashish.

10. Mamlakat ichida tengsizlikni uning barcha ko'rinishlarida qisqartirish.

11. Shaharlar va aholi yashash punktlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta'minlash.

12. Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishni ta'minlash.

13. Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarni qabul qilish.

14. Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga o'maklashish, o'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo'qolib ketish jarayonini to'xtatish.

15. Barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida tinchliksevar va ochiq jamiyatlar barpo etilishiga ko'maklashish, barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanishni ta'minlash va barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirokka asoslangan muassasalarni tashkil etish.

16. Barqaror rivojlanish maqsadlarida Global sheriklik doirasida amalga oshirish vositalarini mustahkamlash va ishlarni faollashtirish.

4.2. Jamiyatning ESG sohasidagi ustuvor maqsad va vazifalari

Jamiyat faoliyati yo'nalishiga ko'ra, BMT BRMLaridan eng dolzarblari 3-, 4-, 5-, 7-, 8-, 9-, 12-, 13- va 15-sonlilaridir.

5. ESG sohasidagi asosiy faoliyat yo'nalishlari

Jamiyat BMTning barqaror rivojlanish tamoyillaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish faoliyatini yuritishda ekologik (Environmental), ijtimoiy (Social) va boshqaruv (Governance) jihatlarini e'tiborga oladi.

5.1. Ekologik mas'uliyat

Jamiyat o'zining atrof-muhitga ta'sirini anglaydi va salbiy ta'sirni kamaytirish, ijobiy natijalarni ko'paytirish va salbiy oqibatlarining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali uni qisqartirishga intiladi.

Jamiyat IT-yechimlarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonlaridan tortib ularni ekspluatatsiya bosqichigacha bo'lgan ekologik yaxlitlikni ta'minlash sohasida jahon standartlariga amal qiladi.

5.1.1. Atrof-muhitning ifloslanishi, resurslardan oqilona foydalanish va energiya samaradorligi

Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan faoliyatda, Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga to'liq muvofiq bo'lishga intiladi. Jamiyat barcha turdagi resurslardan oqilona foydalanishda barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qiladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Jamiyat quyidagi qoidalarga amal qiladi:

- energiya iste'molini muntazam monitoring qilish;
- Jamiyatning ma'muriy bo'linmalarini yuqori energiya samaradorligi sinfiga ega binolarda joylashtirish;
- energiya tejamkor uskunalardan foydalanish;
- kamroq hisoblash resurslaridan foydalanishga imkon beruvchi dasturiy ta'minotni optimallashtirish;
- ofis binolarining kam odam bo'ladigan xonalarida elektr energiyasi iste'molini kamaytirish uchun aqlli yoritish (harakat sensorlari)dan foydalanish;
- quyosh panellarini o'rnatish orqali quyosh energiyasi kabi qayta tiklanadigan elektr energiyasi manbalaridan foydalanish;
- qog'oz iste'molini kamaytirishga imkon beruvchi qisman va to'liq elektron hujjat aylanishiga o'tish;
- xodimlarga gibrid formatda (qisman masofaviy) ishlash imkoniyatini taqdim etish.

5.1.2. Chiqindilar bilan oqilona ishlash

Chiqindilar bilan oqilona muomala qilish – Jamiyatning atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Jamiyat quyidagi qoidalarga amal qiladi:

- elektron chiqindilarni utilizatsiya qilish, bu nafaqat issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, balki tabiiy yashash muhiti va bio xilma-xillikni saqlashga yordam beradi;

- ofislarda maishiy chiqindilarni saralash, qog'ozni qayta ishlatish.


5.1.3. Jamiyatning yashil hissasi

Jamiyat o'ziga biriktirilgan hududlarda daraxtlar ekish bo'yicha tadbirlarni faol tashkil etadi va o'tkazadi. Ushbu tashabbuslar tabiiy ekotizimlarni tiklash va saqlash, ko'kalamzorlashtirish darajasini oshirish va havo sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Vertikal ko'kalamzorlashtirish tamoyili bo'yicha o'simliklarni o'stirish orqali ofisni ko'kalamzorlashtirish, bu havoni namlantirish, chang miqdorini kamaytirish, shovqin darajasini pasaytirish va xodimlarda stressni kamaytirishga yordam beradi.

5.1.4. Xabardorlikni oshirish

Energiya samaradorligini oshirish, toza energiyadan foydalanishning muhimligini anglash hamda uglerod izini kamaytirish maqsadida, Jamiyat o'z xodimlari va hamkorlari orasida xabardorlikni oshirishni zarur deb hisoblaydi. Buning uchun Jamiyat o'z xodimlari, mijozlari va hamkorlari orasida atrof-muhit ifloslanishi va iqlim o'zgarishi bilan kurashish bo'yicha ma'rifiy tadbirlar o'tkazishga amal qiladi.



5.2. Ijtimoiy mas'uliyat

Barqaror rivojlanish sohasida Jamiyatning asosiy vazifalaridan biri – hududlardagi aholi va xodimlarning ijtimoiy farovonligiga ko'maklashish.

Jamiyat barcha manfaatdor tomonlar bilan kamsitishning har qanday shakllarini rad etish, shuningdek inson huquqlarini hurmat qilish asosida sifatli va ochiq munosabatlar o'rnatishga intiladi.

5.2.1. Mehnatni muhofaza qilish, ish joyidagi xavfsizlik va xodimlar salomatligi

Xodimlar salomatligini saqlash va yaxshilash – Jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri. Ushbu sohadagi asosiy yo'nalishlardan biri – mehnatni muhofaza qilish va ish joyida xavfsizlikni ta'minlashdir. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchiligiga qat'iy rioya qiladi va nazorat tashkilotlari tomonidan muntazam tekshiruvlar o'tkazadi.

Mehnatni muhofaza qilish va ish joyida xavfsizlikni ta'minlash uchun Jamiyat quyidagi qoidalarga amal qiladi:

- O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi qonunchiligiga va O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga to'liq muvofiqlikni ta'minlash;

- xodimlarning mehnat faoliyati jarayonida ularning hayoti va sog'lig'ini saqlashni ta'minlash;

- xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash, ishlab chiqarishdagi jarohatlanish va kasb kasalliklarining xavflarini boshqarish;

- rejali tibbiy ko'rikdan o'tishni nazorat qilish;

- xodimlarni tibbiy sug'urta bilan ta'minlash;

- ish joylarida xavf-xatarlarni bartaraf etish va kasbiy xavflar darajasini pasaytirish bo'yicha majburiyatlarni qabul qilish;

- ish joylarini loyihalash, zarur asbob-uskunalar va yoritish vositalarini tanlash orqali xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olish;

- xodimlarning jismoniy holatini qo'llab-quvvatlash uchun korporativ mashg'ulotlar o'tkazish;

- ish binosida xavfsizlik texnikasiga rioya qilish va favqulodda vaziyatlar paytida zarur harakatlar to'g'risida xodimlarning xabardorligini oshirish.

Jamiyat ish joyida mehnat muhofazasi va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xodimlar mehnat sharoitlarini uzluksiz yaxshilash tamoyillarini amalga oshirishga e'tibor qaratadi. Bu kichik, biroq aniq natijalarga yo'naltirilgan tashabbuslarni nazarda tutib, yanada xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratishga imkon beradi.

5.2.2. Xodimlarni rivojlantirish va o'qitish

Jamiyat o'z xodimlariga karyera va shaxsiy o'sish uchun teng imkoniyatlar yaratishni o'z burchi deb biladi, bu Jamiyatning barqaror rivojlanishi va ravnaq topishining garovidir.

Xodimlarning professional mahoratini doimiy ravishda oshirishga yo'naltirilgan sifatli tizimni qo'llab-quvvatlash Jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir.

Jamiyat professional ko'nikmalarni rivojlantirish va malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan IT sohasidagi o'quv kurslarini o'tkazadi. O'qitishni tugatgandan so'ng eng istiqbolli o'quvchilar Jamiyatda amaliyot o'tash va ishga joylashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Jamiyat xodimlarni rivojlantirish va o'qitish sohasida quyidagi qoidalarga amal qiladi:

- biznes ehtiyojlari va xodimlarni baholash natijalariga asoslangan o'quv dasturlarini shakllantirish;
- korporativ madaniyat qadriyatlarini hisobga olgan holda o'quv dasturlarini shakllantirish, bu ularni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga yordam beradi;
- rahbarlarni o'quv dasturlarini shakllantirishga jalb qilish;
- ichki o'quv resurslaridan maksimal darajada foydalanish;
- yangi texnologiyalarni joriy etishni hisobga olgan holda o'qitish tizimini shakllantirish;
- xodimlarning zaruriy kompetensiyalar darajasini saqlab turish va ularni rivojlantirish;
- xodimlarga o'qish davomida olingan bilim va ko'nikmalardan foydalanish imkoniyatini berish maqsadida o'qitishning amaliy zarurligini hisobga olish.

5.2.3. Gender tengligi va kamsitishga yo'l qo'ymaslik

Jamiyat o'z xodimlariga teng mehnat sharoitlari va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlashni kafolatlaydi. Jamiyat inson huquqlarining buzilishi va kamsitishning har qanday shakllarini qabul qilmaydi. Ijtimoiy-madaniy xilma-xillik – Jamiyatning uzoq muddatli va muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy elementlaridan biridir.

Kamsitishga yo'l qo'ymaslik tamoyilini amalga oshirish uchun Jamiyat quyidagi qoidalarga amal qiladi:

- Jamiyat xodimlari tarkibida gender tengligini ta'minlashga intilish;
- Jamiyat rahbariyati tarkibida gender tengligini ta'minlashga intilish;
- xodimlarning jinsi, yoshi, millati va sog'lig'i xususiyatlaridan qat'i nazar, teng qiymatli mehnat uchun teng to'lov darajasini ta'minlash;
- xodimlarning jinsi, yoshi, millati, sog'lig'i xususiyatlaridan qat'i nazar, teng va munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash;
- IT sohasida gender tengligi tamoyili asosida o'qitishni moliyalashtirish;
- Xotin-qizlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha korporativ dasturlar va seminarlar o'tkazish.

5.2.4. Xodimlarni rag'batlantirish, ijtimoiy himoya, mukofotlash tizimi

Jamiyat barcha xodimlar uchun munosib va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga intiladi. Jamiyat xodimlar uchun samarali va shaffof motivatsiya

jarayonlarini, adolatli mukofotlash tizimini, shuningdek xodimlar uchun barqaror va to'liq ijtimoiy himoya tizimini yaratishga intiladi.

Jamiyat xodimlarning farovonligini ta'minlash yo'nalishida quyidagi qoidalarga amal qiladi:

- mehnatga haq to'lash darajasini qabul qilingan normalardan past bo'lmagan darajada ta'minlash;
- to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda amalga oshirishni ta'minlash;
- asossiz ushlab qolishlar va jarimalarning yo'qligi;
- xodimlarning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari hisobiga rag'batlantirish, shuningdek ularni bajarishda mehnatga haq to'lash darajasini oshirish imkonini beruvchi mehnatga haq to'lash tizimidan foydalanish;
- Jamiyatning mahsulotlari va jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha qimmatli g'oyalarni taklif qilgan xodimlarni mukofotlash;
- so'rovlar o'tkazish orqali xodimlardan fikr-mulohazalarni yig'ishni tashkil etish, shu jumladan, ishdan bo'shatishda Jamiyatdan ketish to'g'risidagi qaror sabablarini tahlil qilish va bunday tahlil asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun suhbat o'tkazish;
- manfaatlar to'qnashuvini istisno etuvchi standartlashtirilgan, xolisona va shaffof tanlov jarayonini tashkil etish;
- Jamiyatda halollik, ochiqlik, qulay mehnat sharoitlari tamoyillarini, shuningdek xodimlarning shaxsiy va kasbiy o'sishi uchun imkoniyatlarni amalga oshiruvchi korporativ madaniyatni yaratish;
- xodimlarga moslashuvchan ish sharoitlarini taqdim etish.

5.2.5. Mas'uliyatli ta'minot zanjiri

Jamiyat o'z faoliyati doirasida mamlakat va biznes hamjamiyati rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. ESG siyosatini amalga oshirar ekan, Jamiyat yetkazib beruvchilar va hamkorlar uchun namuna bo'ladi. Jamiyat majburiy va bolalar mehnatini, korrupsiya yoki firibgarlik harakatlarini, shuningdek muhim ekologik va ijtimoiy jihatlarga nisbatan amaldagi qonunchilik buzilishlarini qabul qilmaydi.

Ushbu tamoyillarni qo'llash uchun Jamiyat quyidagi qoidalarga amal qiladi:

- shartnomalar tuzishda manfaatlar to'qnashuvi yo'l qo'yilmasligini ta'minlash tamoyilini amalga oshirish;
- yetkazib beruvchilarni ishonchlilik, barqarorlik, to'lovga qobillik, halollik, mas'uliyatlilik tamoyillari asosida tanlashni amalga oshirish.

5.3. Korporativ boshqaruv sohasidagi mas'uliyat

Jamiyat korporativ boshqaruv tizimini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, shuningdek faoliyatni boshqarishning eng yaxshi amaliyotlariga muvofiq shakllantiradi. Menejmentning yuqori standartlari nafaqat barqaror moliyaviy natijalarga erishish imkonini beradi, balki Jamiyatning ijtimoiy va ekologik ta'sirini samarali nazorat qilishni ta'minlaydi.

5.3.1. Korporativ boshqaruv tizimi

Jamiyat korporativ boshqaruv borasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga amal qiladi.

Jamiyatga joriy etilayotgan boshqaruv amaliyoti Jamiyat strategiyasini eng samarali usulda amalga oshirishni ta'minlashga, qonunchilik normalariga rioya qilgan holda, shuningdek korporativ boshqaruvning eng yaxshi milliy va xalqaro amaliyotlaridan foydalangan holda amalga oshirishga qaratilgan. Boshqaruv tizimini shakllantirish bo'yicha ishlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- maqsadlarni belgilashning shaffof jarayonini shakllantirish, erishilgan natijalarni nazorat qilish va hisobotlarni tayyorlash;
- zarur korporativ boshqaruv organlarini va qarorlar qabul qilish uchun maydonlarni, shu jumladan kollegial va maslahat organlarini tashkil etish;
- Jamiyatning boshqaruv darajalari bo'yicha vakolat va mas'uliyatlarni aniq taqsimlash;
- jarayonli boshqaruvni joriy etish va barcha jarayonlar bo'yicha zarur normativ bazani tayyorlash;
- ortiqcha boshqaruv darajalarini qisqartirish, bo'linmalar o'rtasida funktsionallarni aniq taqsimlash, shuningdek Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini shaffoflashtirishni oshirish maqsadida samarali tashkiliy loyihalash tamoyillarini joriy etish.

5.3.2. Me'yoriy talablar va biznes etikasi tamoyillariga rioya qilish

Jamiyatning me'yoriy talablar va biznes etikasiga rioya qilish sohasidagi faoliyati bir tomondan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qat'iy rioya qilishga, ikkinchi tomondan - lavozimidan qat'i nazar, barcha xodimlar tomonidan biznes etikasi tamoyillariga hurmat ko'rsatishga asoslangan ichki madaniyatni shakllantirishga qaratilgan.

Jamiyatning korporativ madaniyati progressivligi bilan ajralib turadi, uning asoslaridan biri kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik bo'lib, bu Jamiyatda tenglik muhitini yaratish imkonini beradi.

Jamiyat biznes etikasi darajasining jahondagi eng yaxshi amaliyotlarga muvofiqligini ta'minlashga intiladi. Korporativ qadriyatlarni xodimlarga yetkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Yangi qabul qilingan xodimlar korporativ etika va qadriyatlar bo'yicha kirish kursini o'taydilar.

Jamiyat taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini nazorat qilishni, Jamiyatning jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarishning muhim jihati va biznes etikasi tamoyillariga sodiqlikni namoyon etishi deb hisoblaydi.

5.3.3. Tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat

Tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat sohasidagi tadbirlar tizimi faoliyatning barcha asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi, rahbarlar, jarayon egalari va Jamiyatning boshqa manfaatdor tomonlariga biznesning strategik maqsadlariga erishishda oqilona ishonch darajasini ta'minlaydi.

Ichki nazorat sohasidagi tadbirlar tizimi moliyaviy-xo'jalik faoliyatining samaradorligi va resurslardan tejamkor foydalanishni ta'minlaydi. Xususan, ichki nazorat sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- iqtisodiy xizmat nazorati ostida faoliyatning asosiy yo'nalishlari bo'yicha reja-fakt tahlili amalga oshiriladi;
- BHMS va MHXS standartlari bo'yicha buxgalteriya hisoboti;
- barcha korxonalarda texnik reglamentlarga muvofiq sifat nazorati amalga oshiriladi.

Jamiyat o'z faoliyatini axborot xavfsizligining zamonaviy standartlariga muvofiq amalga oshiradi va ma'lumotlar sizib chiqishi bilan bog'liq hodisalarga yo'l qo'ymaslikni o'z ustuvor vazifasi deb hisoblaydi. Jamiyat ishonchli muhitni yaratish va axborot infratuzilmasi xavfsizligini ta'minlash vazifalariga kompleks yondashuvni amalga oshiradi.

6. Siyosatni amalga oshirish

Ushbu Siyosat qoidalari Jamiyat faoliyatining barcha yo'nalishlariga tatbiq etiladi.

Jamiyat xodimlar va biznes hamkorlardan ushbu Siyosatda bayon etilgan tamoyillarga rioya qilishini kutadi.

Jamiyat ushbu Siyosatning qoidalariga rioya qilmagan taqdirda xodimga nisbatan Jamiyatning ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilik normalariga muvofiq choralar ko'rish mumkin.

Jamiyat xodimlari va ishbilarmon hamkorlari, shuningdek inson huquqlari buzilishi, kamsitish yoki ta'qib qilish bilan bog'liq sodir etilgan yoki rejalashtirilayotgan qonunbuzarliklar, Jamiyatdagi firibgarlik va korrupsiya belgilari yoki faktlari hamda Jamiyat bilan bog'liq ishbilarmonlik odobi va axloqining boshqa buzilishlari haqida xabardor bo'lgan yoki shunday deb hisoblashga asoslari mavjud bo'lgan boshqa shaxslar bu haqda Jamiyatga esg@uzinfocom.uz elektron manzili orqali xabar berishlari mumkin.

7. Monitoring va hisobotlar

Ochiqlik va axborot shaffofligiga intilgan holda, hamda manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda, Jamiyat ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatning turli jihatlarini va natijalarini tavsiflovchi monitoring va hisobotlar tayyorlashning muhimligini tan oladi. Hisobot jarayoni GRI va SASB kabi xalqaro miqyosda tan olingan qo'llanma va standartlarga muvofiq tashkil etiladi.

Siyosatning amalga oshirilish holati haqidagi ma'lumotlar www.uzinfocom.uz/uz/company/esg saytida muntazam yangilanib boriladi. Jamiyatning ESG va barqaror rivojlanish bo'yicha yillik hisoboti kompaniyaning Yillik hisoboti tarkibida o'zbek va rus tillarida chop etiladi, bu esa uni keng manfaatdor tomonlar doirasi uchun ochiq bo'lishini ta'minlaydi.

8. Siyosatga o'zgartishlar kiritish

Tashqi muhit, tartibga solish talablari va manfaatdor tomonlarning so'rovlari vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Shunga ko'ra, Jamiyat monitoring o'tkazadi va zarur hollarda ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi alohida jihatlar va vazifalarni joriy vaziyatga muvofiq va sodir bo'layotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda Siyosatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib boradi.

Siyosatga o'zgartishlar yilda bir marta kelib tushgan eng dolzarb so'rovlarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha Jamiyat rahbariyati qaroriga muvofiq kiritiladi. Tasdiqlash Jamiyat Bosh direktori tomonidan beriladi. Barcha xodimlar va manfaatdor shaxslar istalgan paytda Siyosatning joriy tahriridan foydalanishlari mumkin.

9. ESG-reyting

Jamiyat ESG sohasidagi mahalliy va xalqaro standartlarga muvofiqlikning muhimligini tan oladi va ESG-reyting talablarini o'z faoliyatiga joriy etishni strategik maqsad sifatida ko'rib chiqadi.


O'z sohasi va bozor xususiyatlarini hisobga olgan holda mahalliy, keyinchalik xalqaro agentliklardan ESG-reytinglarini olish imkoniyatlarini o'rganish rejalashtirilgan.

Jamiyat quyidagi yetakchi xalqaro ESG-reytinglarining talablariga muvofiq bo'lishni maqsad qilgan:

- S&P Global ESG Evaluation va S&P Global Corporate Sustainability Assessment;
- MSCI ESG Ratings;
- Sustainalytics ESG Risk Rating.

ESG-reytinglarning berilishi Jamiyat obro'sini mustahkamlash va investorlar, mijozlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini oshirish, shuningdek barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyati shaffofligini oshirish va xalqaro maydonda yanada raqobatbardosh mavqega ega bo'lish imkonini beradi.

Bunday yondashuv Jamiyatga ESG sohasida ham mahalliy, ham global darajada tan olinishini ta'minlaydi, bu esa barqaror rivojlanishning strategik maqsadlariga erishish yo'lidagi muhim qadam bo'ladi.



10. Bog'liq hujjatlar

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global bitimi o'nta tamoyili.
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari nuqtayi nazaridan tadbirkorlik faoliyatiga oid yo'riqnomalari.
4. Xalqaro mehnat tashkilotining "Mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlar to'g'risida"gi deklaratsiyasi (1998-yil 18-iyunda Jenevada qabul qilingan).
5. Rio-de-Janeyro atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha deklaratsiyasi (BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida 1992-yil 3-14-iyunda Rio-de-Janeyro shahrida qabul qilingan).
6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003-yil 31-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan).
7. Barqaror rivojlanish sohasida hisobot berish bo'yicha GRI qo'llanmasi YAKUNIY QOIDALAR 24-son hujjat nomi.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
9. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
10. O'zbekiston Respublikasining 03.07.2023-yildagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RBQ-850-sonli Qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasining 26.04.1996 yildagi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 221-I-sonli Qonuni.
12. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 754-XII-sonli Qonuni.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-sonli qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Jamiyat hayotida ayollarning faol ishtirokini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-sonli qarori.
15. O'z DSt ISO 9001:2015 "Sifat menejmenti tizimlari. Talablar".
16. O'z DSt ISO 14001:2019 "Ekologik menejment tizimi. Talablar va ularni qo'llash bo'yicha qo'llanma".
17. O'z DSt ISO 45001:2020 "Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik menejmenti tizimlari. Talablar va ularni qo'llash bo'yicha qo'llanma".
18. ISO 26000 "Ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha yo'riqnoma" xalqaro standarti.
19. Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlari.